

Fonetik hodisalar

Nazarova Sabrina Zafarjon qizi
NamDU Filologiya fakulteti o'zbek tili yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola fonetik o'zgarishlar va ularning turlari haqida.

Annotatsion: The article is about phonetic changes and their types.

Tayanch so'z va birikmalar: fonetik o'zgarishlar , kombinator, reduksiya , proteza, epiteza , prokopa , sinkopa , apakopa , sinerezis , assimilyatsiya , dissimilyatsiya , diereza , epenteza , gaplogiya , metateza , aferezis , eliziya, singarmonizm va boshqalar.

Key words: phonetic changes , combinator , reduction , prosthesis , epithesis , prokop , syncope , apakopa , syneresis , assimilation , dissimilation , diereza , epenthesis , haplology , metathesis , apheresis , elision , synharmonism and etc.

Ma'lumki , nutq tovushlari yozuvda har qaysi tilda qabul qilingan belgilar, harflar orqali o'z ifodasini topadi. Biroq so'zlashuv jarayonida nutq tovushlari harflar orqali aks ettirilganidek , yakka-yakka holda ishlatilmaydi.

Bilamizki , har qanday so'zlarni , so'z birikmalarini talaffuz qilayotganimizda o'zimizga moslashtirib aytamiz va bu so'zlarning ba'zilari ham yozuvda o'z aksini topadi. So'zlashuv jarayonida nutq tovushlari o'zgarishi ayrim tovushlarning bir-biriga ta'sir qilishi natijasida ro'y beradi. Masalan , yozuvda yotdi , kitob shaklidagi so'zlar og'zaki nutqda yotti , kitop kabi talaffuz qilinadi.

Talaffuz qulayligiga intilish harakati tufayli nutq jarayonida tovushlar zanjiridagi o'zgarishlar yoki talaffuzda yengillik va soddalikka intilish , nutq tovushlarining o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladigan o'zgarishlar fonetik hodisalar deyiladi.

Maktab darsliklarida fonetik hodisalarning , asosan , 3 turi keltirilgan. So'z yasash jarayonida hosil bo'lgan fonetik hodisalar : tovush tushishi , tovush ortishi va tovush almashinuvi kabilar. Bu fonetik hodisalarni misollar orqali tahlil qilamiz:

• **Tovush tushishi:** sust , past , ulug' singari so'zlarda -ay yasovchi vosita qo'shilganda , yasashda asos qismda mavjud bo'lgan oxirgi “ t “ undoshi yoki “ u “ unlisi tushib qoladi : sust+ay=susay , past+ay=pasay , ulug'+ay=ulg'ay.

• **Tovush ortishi:** ega so'ziga -la fe'l yasovchi qo'shimcha qo'shilsa , bitta “ l “ undoshi ortadi: ega+la=egalla.

• **Tovush almashinuvi:** son , yosh ,ong kabi so'zlarga fe'l yasovchi -a yoki -la qo'shimchalari qo'shilganda , asos qismda tovush o'zgarishi ro'y beradi: son+a=sana, yosh+a=yasha.

Jumladan , she'riy misralarimizda ham buni ko'rishimiz mumkin:



FRANCE

Deydilar qahrli bahodirlar ham ,
Janglarda jon berar chog'i mardona.
Behad azoblarga chidab so'nggi dam ,
Bitta so'z demishlar shivirlab:Ona. (A. Oripov)

Ushbu she'riy misralardagi deydilar, bitta so'zlari fonetik o'zgarishlarga uchragan. Ya'ni deydilar so'zining asosi demoq fe'lidir. Demoq fe'liga o'tgan zamon hosil qiluvchi -di qo'shimchasi qo'shilishi natijasida “ y “ tovushi ortgan: demoq+di=deydi. Bitta so'zining asosi bir . Bir so'ziga dona son hosil qiluvchi -ta qo'shimchasi qo'shilganda “ t “ tovushi ortgan: bir+ta=bitta. Bu misralarda ko'rib turganimizdek , tovush ortishi hamda tovush almashinuvi hodisalari yuz bergan.

Tovushlarning pozitsion va kombinator o'zgarishlari farqlanadi.

Pozitsion o'zgarishlarga reduksiya , proteza , epiteza, prokopa , sinkopa , apakopa , sinerezis kabilar kiradi.

•**Reduksiya** – unli tovushlarning urg'usiz bo'g'inlarda kuchsizlanishi yoki o'zgarishi . Masalan , sanash so'zining boshidagi urg'usiz (a) oxiridagi (a) ga qaraganda ancha kuchsiz va qisqaroq talaffuz etiladi.

Asrim o'sha olis oy qorasini

Sanab bo'lguncha bir zum tolmading. (A. Oripov).

•**Epiteza** - ma'lum fonetik sabablarga ko'ra so'z oxirida tovush ortilishi: bank-banka , disk-diska , tank-tank. Ayrim manbalarda epiteza hodisasi austeza deb ham yuritiladi.

•**Prokopa** (ankopa) - so'z boshida ba'zan unli yoki undosh tovushning tushib qolish hodisasi: yiroq-iroq , hid-id , hilvira-ilvir .

•**Sinkopa** - so'z o'rtasidagi tovush yoki tovushlar guruhining tushishi: arslon-aslon , oltmish-otmish.

•**Apakopa** - so'z oxiridagi tovush yoki qo'shma so'z qismlaridan birining tushirilishi: to'rt - to'r , g'isht - g'ish , Toshkent - Toshken . Qo'shma so'zlarda kilogramm - kilo, metropoliten - metro kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Yurtim , seni faqat boyliklaring-chun ,

Sevgan **farzand** bo'lsa kechirma also! (A.Oripov).

•**Sinerezis** - so'z o'rtasida yonma-yon kelgan ikki unlining biri kuchsizlanib , nutqda tushib qolishi va ikkinchi unlining cho'ziqroq talaffuz qilinishi: saodat – so:dat , matbaa – matba: , maorif – mo:rif .

Biroq yoringni kutgali nechun,

Topilmas tirnoqcha sabr-u **saodat**. (A. Oripov).

Turli holatlarda tovushlarning talaffuzi har xil o'zgarishlarga uchraydi. N. S. Trubetskoy ko'rsatishicha: “... amaliy jihatdan aynan bir tovushni bir pozitsiyada ham bir necha marta aniq va bir turda talaffuz etish mumkin emas “ . Nutqda tovushlarning



FRANCE

turli pozitsion o'zgarishlarini qancha chuqur o'rganilsa , shunchalik ko'p tovushlarning turlari aniqlanishi mumkin.

Nutq tovushlarining qo'shni tovushlar ta'sirida miqdor va sifat belgilarining o'zgarishi kombinator o'zgarishlar deyiladi. Assimilyatsiya , dissimilyatsiya , diereza , epenteza , gaplologiya , proteza , metateza kabi fonetik hodisalar kiradi. Ba'zan bu hodisalarni o'rganuvchi bo'lim kombinator fonetika deb ham yuritiladi.

• **Assimilyatsiya** - so'zlarda ikki yonma-yon tovushning bir-biriga ta'sir qilishi natijasida , ya'ni oldingi tovushning keyingisiga yoki keyingi tovushning oldingisiga o'xshab ketishi , moslashishi. Masalan , otda shaklida ifodalangan so'z so'zlashuv jarayonida otta deb talaffuz qilinadi: bunda shu ot so'zidagi jarangsiz “ t “ tovushining ta'siri natijasida shu tovushdan keyin kelgan jarangli “ d “ ham “ t “ ga o'xshab ketgan . Ishni – ishshi , tuzsiz -tussiz , ketdi – ketti.

Tiniq ko'l bag'ridan parcha oq bulut,

Suzib **chiqdi** bir vaqt moviy osmonga. (A. Oripov).

• **Dissimilyatsiya** – nutq jarayonida ba'zi bir so'zlarda yonma-yon kelgan ikki tovushning o'xshab ketish o'rniga noo'xshashlik yuz berishi: maqsad – maxsad , maqtov – maxtov , zarar – zaral , musulmon – musurmon.

Yaratmoq , ya'ni bor qilmoqdan **maqsad** ,

Aslida qaytdan yo'q qilmoq faqat.(E. Vohidov).

• **Diereza** – so'z tarkibidagi undosh tovushlarning tushib qolishi: go'sht – go'sh , do'st - do's , sust – sus .

Mana bugun navro'zi olam ,

Do'stlarimga gullar tutarman. (A. Oripov).

• **Epenteza** - so'z o'rtasida tovush orttilishi: ilm – ilim , fikr – fikir , hukm – hukum .

Umr duch qilarkan kimga bir-birni ,

Tashkil etmoq darkor avval taqdirni. (A. Oripov).

• **Proteza** - so'zning boshlang'ich qismiga tovushlarni qo'shib aytish. Turkiy tillarda , xususan , o'zbek tilida rus tilidan kirga so'z boshida kelgan undosh tovushlar birikmasi oldidan “ I “ , “ u “ unlilarini qo'shib aytish: stansiya – istansiya , stol – ustol , stakan – istakan.

Arabcha o'zlashmalar tarkibida ikki unli orasida bir undoshning orttilishi ko'proq uchraydi: shoir – shoyira , foiz – foyiz , soat – sog'at.

Xayol daryosida o'zni yo'qotdim ,

Boshimdan **koinot** zar sochgani dam... (A. Oripov).

• **Gaplologiya** – yasama so'zda bir xil yoki o'xshash bo'g'inlardan birining tushirib qoldirilishi: morfonologiya – morfofonologiya , sarig' yog' – sariyog' , qaynona – qaynana – qayna .



• **Metateza** – nutq jarayonida so'zdagi tovushlarning o'rin almashinuvi: tuproq – turpoq , to'g'ramoq - to'rg'amoq , supra – surpa.

Bundan tashqari , boshqa fonetik hodisalar ham mavjud:

• **Aferezis** – oldingi so'zning so'nggi tovushi ta'sirida keyingi so'z boshidagi tovushning tushishi: ne uchun – nechun , mulla aka – mullaka.

Yaxshi qiz , xayolga toldingiz **nechun?**

Nechun ko'z yoshingiz tomda yo'linga . (A. Oripov).

• **Eliziya** – unli tovush bilan tugagan so'z unli bilan boshlangan so'zning qo'shilishi natijasida bir unli tovushning tushish hodisasi: bora oladi – boroladi , ko'ra olmoq-ko'rolmoq , dili orom – Dilorom.

Amr etsa gar o'sha **Dilorom**,

Tashlanaman daraja shu zum. (A. Oripov).

• **Geminatsiya** (qo'sh undoshlilik) – so'z tarkibida ikkita bir xil undoshning qavatlanishi: rosa – rossa , maza – mazza , toza – tozza .

Shu o'rinda aytishimiz joizki, singarmonizm hodisasi assimilyatsiyaning bir ko'rinishidir. Singarmonizm - so'zning birinchi bo'g'inidagi unlining xususiyati va sifatiga qarab , boshqa bo'g'inlardagi unlilarning ohangdoshlashib moslashuvi. Singarmonizm 2 xil bo'ladi: 1. Palatal singarmonizm; 2. Labial singarmonizm.

Palatal singarmonizm – bu fonetik qonunga muvofiq , so'z tarkibidagi “ qattiq “ , ya'ni til orqa unlilari yoki “ yumshoq “ , ya'ni til oldi unlilari ohangdoshlashib uyg'unlashadi , moslashadi. Masalan , qoraqalpoq tilida – mekteblirimizdenu , ozarbayjon tilida – Assimilyatsiya , dissimilyatsiya , diereza , epenteza , gaplologiya , proteza , metateza , qirg'iz tilida – mekteptin kabilarni misol qilishimiz mumkin. Labial singarmonizm barcha turkiy tillarda uchramaydi. O'zbek tilida labial singarmonizm og'zaki nutqda hamda shevalarda ham uchratishi mumkin: muhum (muhim) , buvu (buvi) , bo'lum (bo'lim) , o'g'ul (o'g'il) kabilar.

Xulosa qilib aytsak , turli artikulyatsion-akustik xususiyatlar tovushlar birikmasida bir-biriga ta'sir qilishi natijasida artikulyatsiya qisqarishi , tovush ba'zan tushib qolishi va boshqa o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Bunday o'zgarishlar ba'zan nutqda talaffuzni iqtisod qilish hisobiga bo'ladi , chunki Martinening ta'kidlashicha: “... odam o'zining nutqi eshituvchiga qanchalik tushunarli bo'lsa , o'shancha talab etilgan nutq kuchini , ya'ni talaffuzini sarf etadi “.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduhuzur Abduazizov “ Tilshunoslik nazariyasiga kirish” .
“ Sharq” nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati Toshkent – 2010
2. Nosirjon Uloqov “ Tilshunoslik nazariyasi “ Toshkent – 2016 .
3. Ibrohim Yo'ldoshev , O'lmas Sharipova “ Tilshunoslik asoslari “ .
Toshkent “ Iqtisod – moliya “ 2007.
4. Maktab darsliklari.